



O'ZBEK TILIDA TARZ SEMANTIKASINING MORFOLOGIK IFODA VOSITALARI

Jo'rayeva Mahliyo Nosirovna

*Qarshi shahridagi Xalqaro innovatsion universiteti,
O'zbek filologiyasi va jurnalistika kafedrası o'qituvchisi.*

mjurayeva908@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada o'zbek tilida tarz semantikasining morfologik ifoda vositalari funksional-semantik yondashuv asosida tahlil qilindi. Kuzatish davomida morfologik birliklarning tarz ma'nosini shakllantirish, nutq jarayonidagi o'rni aniqlandi. Xususan, affiksalar vositalari, fe'l shakllari hamda ularning grammatik-semantik imkoniyatlari kontekstual hamda kommunikativ jihatdan tahlil qilindi. Morfologik shakllar orqali yuzaga keladigan semantik nozikliklar, subyektiv baho va pragmatik ma'no qatlamlari funksional-semantik maydon nazariyasi asosida tizimli tasniflandi. O'zbek tilshunosligida tarz semantikasini kompleks yondashuv asosida o'rganish imkoniyatini kengaytiradi. Maqolada o'zbek tilida tarz ma'nosini ifodalovchi morfologik vositalar tahlil qilinib, ularning tarz funksional-semantik maydonida tutgan o'rni va semantik yuklamasi aniqlandi.

Kalit so'zlar: tarz, morfologik vosita, funksional-semantik yondashuv, maydon, affiksalar vositalari, fe'l shakllari.

Annotation. The article analyzes the morphological means of style semantics in the Uzbek language based on a functional-semantic approach. During the observation, the role of morphological units in the formation of style meaning and the speech process was determined. In particular, affixal means, verb forms and their grammatical-semantic capabilities were analyzed from a contextual and communicative perspective. The semantic subtleties, subjective assessment and pragmatic meaning layers arising through morphological forms were systematically classified based on the theory of the functional-semantic field. It expands the



possibilities of studying style semantics in Uzbek linguistics based on a complex approach. The article analyzes morphological means denoting the meaning of tarz in the Uzbek language, and determines their role in the functional-semantic field of style and their semantic load.

Keywords: stylistic semantics, morphological means, functional-semantic approach, field, affixal means, verb forms.

Аннотация. В статье анализируются морфологические средства семантики стиля в узбекском языке на основе функционально-семантического подхода. В ходе исследования определена роль морфологических единиц в формировании значения стиля и речевого процесса. В частности, аффиксальные средства, глагольные формы и их грамматико-семантические возможности проанализированы с контекстуальной и коммуникативной точек зрения. Семантические тонкости, субъективная оценка и прагматические смысловые слои, возникающие через морфологические формы, систематически классифицированы на основе теории функционально-семантического поля. Расширяются возможности изучения семантики стиля в узбекской лингвистике на основе комплексного подхода. В статье анализируются морфологические средства, обозначающие значение атрза в узбекском языке, и определяется их роль в функционально-семантическом поле стиля и их семантическая нагрузка.

Ключевые слова: стилистическая семантика, морфологические средства, функционально-семантический подход, поле, аффиксальные средства, формы глаголов.

KIRISH. Zamonaviy tilshunoslikda til birliklarini faqat alohida sathlar doirasida emas, balki ularning o'zaro aloqadorligi va kommunikativ vazifalari nuqtai-nazaridan o'rganishga bo'lgan ehtiyoj ortdi. Shu jarayonda funksional-semantik yondashuv til hodisalarini mazmun va shakl birligi asosida tahlil qilish imkonini beruvchi samarali metodologiya sifatida shakllandi. Ushbu yondashuv asosida keng qo'llanila boshlangan termin **"maydon"** dir. "Maydon" atamasi turli



fan sohalarida qo'llanilib, har bir sohada o'ziga xos mazmunda talqin etiladi. Xususan, *fizika* fanida maydon tushunchasi asosiy nazariy kategoriyalardan biri bo'lib, fazoda taqsimlangan fizik kattaliklarning xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan ilmiy yo'nalish – maydon nazariyasi bilan bog'liq holda izohlanadi[1]. Bu yondashuvda maydon moddiy obyektlardan mustaqil holda mavjud bo'lib, fazo va vaqt doirasida ta'sir ko'rsatuvchi hodisa sifatida qaraladi.

Algebra sohasida esa maydon qo'shish va ko'paytirish amallari hamda ularga mos teskari amallar – ayirish va bo'lish kiritilgan algebraik tuzilma sifatida ta'riflanadi[2]. Bunda maydon muayyan aksiomalarga asoslangan matematik to'plamni anglatadi.

Lingvistikada “maydon” tushunchasi esa umumiy semantik mazmun asosida birlashgan til birliklari majmui sifatida izohlanadi[3]. O'zbek tilida tarz ma'nosini ifodalovchi leksik birliklar, jumladan, holat ravishlari, holat bildiruvchi sifatlar ushbu maydonning **yadro** qismini tashkil etadi. Leksik-morfologik vositalar, xususan, harakat tarzi shakllari, shuningdek, morfologik vositalar – harakatning kuchli yoki kuchsiz darajasini ifodalovchi fe'l shakllari hamda ayrim ravishdosh shakllari funksional-semantik maydonning **markaziy** qatlamida joylashadi. Sintaktik, uslubiy va nolisoniy vositalar, shuningdek, ko'makchili va kelishik shaklidagi ayrim ot birliklari esa tarz funksional-semantik maydonining **periferik** chegaralarini tashkil etadi. Mazkur rang-barang ifoda vositalari orasida morfologik shakllar tarz semantikasini ifodalashda alohida ahamiyat kasb etadi, chunki ular fe'lning grammatik tuzilishi orqali harakatning bajarilish usuli, intensivligi va davomiyligini ifodalash imkonini beradi. Shu bois, ushbu maqolada tarz funksional-semantik maydonining tarkibiy qismi sifatida morfologik vositalar alohida tadqiqot obyekti sifatida tanlanib, ularning semantik yuklamasi, funksional xususiyatlari tahlil qilindi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Lingvistik birliklarni umumiy ma'no asosida guruhlash hamda muayyan tilning lug'aviy boyligini mazmuniy uyalar asosida tizimlashtirish g'oyasi dastlab



sharq tilshunosligi an'analarida shakllangan. Keyinchalik XIX asrga kelib, til birliklarini ma'no umumiyligi asosida birlashtirish yoki til tizimini alohida mazmuniy guruhlariga ajratish tamoyili Yevropa tilshunosligida faol rivoj topdi. Natijada maydon nazariyasi asosan Yevropa lingvistik tafakkuri bilan uzviy bog'liq holda shakllandi.

XIX asrda til birliklarining semantik umumiyligi masalasiga M. Pokrovskiy alohida e'tibor qaratdi. Maydon tushunchasining nazariy asoslari esa I. Trir, G. Ipsen, V. Porsig, L. Vaysgerber, A. Yolles singari olimlarning ishlarida aks etdi. Keyingi bosqichda A. A. Ufimseva, N. I. Filicheva, Yu. N. Karaulov, G. S. Shchur kabi tadqiqotchilar tomonidan ushbu nazariya yanada rivojlantirildi va boyitildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Morfologik vositalar til tizimida ma'no ifodalashning asosiy grammatik darajasi sifatida muhim ahamiyatga ega. Tarz funksional-semantik ma'nosini shakllantirishda ayniqsa morfologik birliklar, xususan, affiksalar shakllar markaziy o'rin tutadi. O'zbek tilida harakat tarzi va uslubini ifodalovchi qo'shimchalar, masalan: *-lab, -ona, -lay, -simon, -li, -cha, -an, -larcha, -chasiga, -ligicha/layin, -chan, -day/dek*, fe'lining semantik imkoniyatlarini kengaytirish bilan birga, harakatning qanday tarzda amalga oshirilganini ko'rsatadi. Shu tariqa, affiksalar vositalar tarz semantikasining morfologik ifodasida yetakchi funksiyani bajaradi.

Tilshunos Azim Hojiyev fikricha, *-lab* qo'shimchasi so'z yasashda turlicha baholangan: ba'zan ravish yasovchi, ba'zan umuman so'z yasovchi emas deb ta'kidlangan[4]. Shu bilan birga, u ravish hosil qiluvchi morfema sifatida ham ko'riladi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da *-lab* orqali hosil qilingan 40 ga yaqin so'z qayd etilgan.

Morfologik nuqtai nazardan, **-lab** ot va sifatga qo'shib ravish hosil qiladi. Masalan: *harflab* (ketma-ketlik bilan), *bo'g'inlab* (bosqichma-bosqich), *bitalab* (bosqichma-bosqich). Shu bilan birga, qo'shimcha kontekstga qarab ravish yoki ravishdosh ma'nosini bildiradi: *yaxshilab ta'zirini berdi* – ravish, *yaxshilab gapirdi* – ravishdosh.



-cha ko‘p ma’noli qo‘shimcha bo‘lib, turli so‘z turkumlarida ishlatiladi: fe‘l (*yugurgancha*), ot (*yaxshilikcha*), sifat (*yangicha*), olmosh (*o‘zicha*, *shuncha*), ravish (*hozircha*). Holat ma’nosi bildirganda u sifat yoki fe‘lning -gan sifatdosh shakliga qo‘shiladi: *yangicha*, *yashirinch*a, *istagancha*, *shoshilgancha*.

O‘zbek tilida **-li** qo‘shimchasi ham ko‘p funksiyali affiks bo‘lib, otlardan sifat yasaydi va quyidagi ma’nolarni bildiradi: me’yordan ortiqlik (*kuchli*, *mazmunli*), egalik (*rasmli*, *tajribali*), moslik (*o‘tirishli*, *yeyishli*). Shuningdek, u tarz semasini ham ifodalaydi, ya’ni ish-harakatning tashqi ko‘rinishi yoki holatini: tashvishli qiyofada kirib keldi (S.Ayniy).

O‘zbek tilida **-an** qo‘shimchasi asosan otlardan ravish hosil qiladi va harakatning qanday amalga oshirilganligini, ya’ni tarzini bildiradi: *majburan*, *qisman*, *tamoman*, *tasodifan*, *taxminan*, *shaklan*, *qat’iyan*, *ruhan*. Tilshunoslar bu qo‘shimchani o‘zbek tiliga boshqa tillar, jumladan arab va tojik tilidan kirib kelganligini ta’kidlaydilar[5].

Semantik jihatdan **-an** qo‘shimchasi turli ma’nolarni bildiradi: ko‘rinish jihat (*shaklan*), rasmiy tarz (*rasman*), ma’noviy tomon (*ma’nan*), daraja (*qisman*), ruhiy holat (*ruhan*).

Hozirgi o‘zbek tilida **-larcha** eng faol ravish yasovchi affiks hisoblanadi va semantik jihatdan **-cha** bilan hosil qilingan ravishlardan farq qilmaydi. U asosan ot va sifatlardan ravish hosil qiladi: *bolalarcha*, *aybdorlarcha*, *do‘stlarcha*, *otalarcha*, *keksalarcha*, *vahshiylarcha*, *yovuzlarcha*.

-chasiga affiksi shaxs bildiruvchi otlarga qo‘shilib, harakat-holatning shaxsga xos tarzda bajarilishini bildiruvchi ravish hosil qiladi: *dehqonchasiga*, *chapanichasiga*, *tentakchasiga*. Mazmunan u **-cha** va **-larcha** affikslariga nisbatan harakat belgisining shaxsga xosligini yanada aniq ifodalaydi.

-chang affiksi asosan kiyim yoki bosh bilan bog‘liq otlarga qo‘shilib, shaxsning aynan shu libosda ekanligini yoki shu holatda faoliyat olib borayotganini bildiradi: *ko‘ylakchang*, *mahsichang*[6]. Kontekst orqali shaxsning ijtimoiy holati va harakatlari aniqroq ifodalanadi: Yigit *ko‘ylakchang hovliga kirib*, mehmonlarni kutib



oldi; Shapkachang bolalar ko'chada qor o'ynab yugurishardi; Ustoz darsga kirar-kirmas yangi mavzuni kamzulchang boshlab yubordi.

XULOSA. O'zbek tilidagi ravish hosil qiluvchi qo'shimchalar -lab -cha -li -an -larcha -chasiga -chang morfologik va semantik jihatdan boy va ko'p funksiyalidir Ular turli so'z turkumlaridan ot sifat fe'l olmosh ravish hosil qilib harakatning bajarilish tarzini shaxsga xoslikni holatni predmetlik belgisini va ma'nan ijtimoiy yoki ruhiy xususiyatlarni bildiradi -lab va -an harakatning tashqi yoki daraja tarzini -cha va -larcha tarz yoki shaxsga xoslikni -li egalik moslik me'yordan ortiqlik va tarz ma'nolarini -chasiga shaxsga xos tarzni -chang esa kiyim yoki bosh bilan bog'liq holatlarni bildiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. G'aniev A.G., Avliyoqulov A.K., Almardonova G.A. Fizika. I qism. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. Buxoro – 2002. 186-b
2. Narzullayev U.X. Algebra va sonlar nazariyasi: O'quv qo'llanma. Samarqand – 2020. 60-61-b
3. Jo'rayeva M. O'zbek tilida tarz maydoni: mag. diss. Qarshi – 2019. 38-b
4. Hojiev A. O'zbek tili so'z yasalishi. – T.: O'qituvchi, 1989. 95-b.
5. Sayfullayeva R. Hozirgi adabiy o'zbek tili – Toshkent, 2009. B-256-257
6. Shukurov O, Boymatova B. Ona tili, (uslubiy qo'llanma). Qarshi, Fan va ta'lim-2021. B-96